12.  $B$  burchagi  $60^\circ$  bo'lgan  $ABC$  uchburchakka markazi  $BC$  tomonida yotuvchi radiusi  $3\sqrt{3}$  ga teng aylana tashqi chizilgan bo'lsa,  $AC$  tomonning uzunligini toping.

- A) 4,5      B) 5  
C) 6      D) 9

13.  $x^3 + 9x^2 + 23x + 13 = -2$  tenglamaning barcha haqiqiy ildizlari yig'indisini toping.

- A) 15      B) -15  
C) 9      D) 23

14. Quyidagilardan qaysi biri ko'p burchakning ichki burchaklari yig'indisi bo'la olmaydi?

- A) 2340      B) 1620  
C) 1980      D) 2080

15. Uchburchakli muntazam piramidaga tashqi chizilgan sharning markazi uning balandligini 3 va 6 ga teng qismlarga ajratsa, shu piramida hajmini toping.

A)  $\frac{243\sqrt{3}}{4}$       B)  $\frac{81\sqrt{3}}{4}$

C)  $\frac{25\sqrt{3}}{4}$       D)  $\frac{25\sqrt{3}}{3}$

16.  $a$  ning qanday qiymatlarida  $y = 9x^2 - 12x - 13,5a$  funktsiya absissalar o'qi bilan 2 ta umumiy nuqtaga ega bo'ladi?

A)  $a < \frac{4}{27}$       B)  $a > \frac{4}{27}$

C)  $a > -\frac{8}{27}$       D)  $a > -\frac{8}{35}$

17. Berilgan nuqtadan tekislikka uzunliklari 37 va 13 ga teng ikkita og'ma o'tkazilgan. Og'malarning tekislikdagi proyeksiyalari nisbati 1:7 kabi bo'lsa, tekislikdan nuqttagacha bo'lgan masofani toping.

- A) 10      B) 11  
C) 12      D) 13

18. Quyidagilardan qaysi biri muntazam piramidaning asosi bo'la olmaydi?

- A) uchburchak  
B) to'g'ri to'rtburchak  
C) kvadrat  
D) romb

19. 64 dan kichik tub sonlar nechta?

- A) 16      B) 17  
C) 18      D) 19

20.  $y = 3x^2 - 12x - 16$  funktsiyaning  $[3;8]$  kesmadagi eng kichik qiymatini toping.

- A) -22  
B) -25  
C) -28  
D) -20

21.  $a$  ning qanday qiymatlarida  $a^6 x \geq |a|^3$  tengsizlik yechimlari  $x \geq \frac{1}{27}$  bo'ladi?

- A) -3; 3  
B)  $a > 3$   
C)  $a > -3$   
D)  $a \neq 0$

22.  $\log_x 3 < 2$  tengsizlikni yeching.

- A)  $(1; \sqrt{3})$   
 B)  $(0; 1) \cup (\sqrt{3}; \infty)$   
 C)  $(\sqrt{3}; \infty)$   
 D)  $(0; \infty)$

23. Trapetsiyaning diagonal-lari 13 va 15 ga, balandligi 12 ga teng bo'lsa, uning yuzini toping.

- A) 84                      B) 168  
 C) 24                      D) 36

24. Kitob va qalam 110 so'm turadi, kitob qalamdan 100 so'm qimmat bo'lsa, qalam qancha turadi?

- A) 10                      B) 15  
 C) 20                      D) 5

25. Matnni ko'rsatilgan joyidan chiqarish operatorini toping.

- A) GotoXY(x,y)  
 B) TextColor(x)  
 C) ClrScr  
 D) Writeln(x)

26. Trigger – ...

A) kompyuterda ishlangan natijani EHM «tili»dan inson tushunadigan ko'rinishga keltiruvchi qurilma

B) ikkita turg'un holatning birida turgan hamda teskari aloqa vositasiga ega bo'lgan kompyuter elementi

C) o'z kirishiga kirib kelayotgan ma'lum bir shakldagi signal yoki impulslarni sanash uchun mo'ljallangan qurilma

D) sonlarni qo'shish uchun xizmat qiladigan qurilma

27. Nuqtalar o'rniga o'ng ustundagi belgilardan to'g'risini topib qo'ying.

a	Word masalalar panelidagi ... piktogrammasi yordamida ishga tushadi	X 1
b	Word Windows ish stolidagi ... yorlig'i yordamida ishga tushadi	W 2
c	Word dasturida ishni tugallash uchun ... piktogrammasi tanlanadi	W 3

- A)  $1 - a, 3 - b, 2 - c$   
 B)  $1 - b, 2 - c, 3 - a$   
 C)  $1 - b, 2 - c, 3 - a$   
 D)  $3 - a, 2 - b, 1 - c$

28. Quyidagi funksiyalarning grafiklaridan qaysi biri uzlukli ko'rinishda bo'ladi?

- A)  $y=5x+3$   
 B)  $y=x^2+3$   
 C)  $y=5/(x-2)$   
 D)  $y=5/(x^*+2)$

29. Ikkilik sanoq sistemasidagi 10011001111000 berilgan. Shu sonni o'nlik sistemadagi 8 ga bo'lganda hosil bo'ladigan sonni sakkizlik sanoq sistemasida ko'rsating.

- A) 2137                      B) 231701  
 C) 1745                      D) 2317

30. Qaysi javobda ikkinchi avlodga mansub EHM turlari to'g'ri berilgan?

- A) EDSAK, ENIAK, BESM-2

- B) Yamaxa, Praves, Agat  
C) Minsk-22, M-220, MIR,

III SM-6

- D) ES-1022, ES-1035, ES-1065

$$31. \frac{1}{1} + \frac{x-2}{x} + \frac{x-3}{x} + \dots + \frac{1}{x} = 3$$

tenglamani butun sonlarda yeching.

- A) 6                      B) 7  
C) 8                      D) 5

32.  $\lg 5 = 0,3$  bo'lsa,  $\log_5 10$  ni toping.

- A) 0,3                    B) 3,(3)  
C)  $\frac{3}{7}$                       D)  $1\frac{3}{7}$

33.  $y = x^2 - 4x + 7$  funksiya-ni  $d(1;2)$  vektor yordamida parallel ko'chirishdan hosil bo'lgan funksiya-ni toping.

- A)  $y = x^2 + 2x + 14$   
B)  $y = x^2 + 2x - 14$   
C)  $y = x^2 - 6x + 14$   
D)  $y = x^2 - 6x - 14$

34.  $\frac{2}{x-1} < 2 - 2x$  tengsizlik-ni yeching.

- A)  $(-\infty; 1)$     B)  $(-1; 1)$   
C)  $[-1; 1]$   
D)  $(-\infty; -1) \cup (0; 1)$

35. Ikki xonali sonlar raqam-lari almashtirilib yangi son ho-sil qilindi, shu sonlar ayirmasi quyidagi sonlardan qaysi biri-ga doim bo'linadi?

- A) 5                      B) 7  
C) 3 va 9  
D) 7 va 5

$$36. \left(\frac{3}{2}\right)^3 : \frac{(3,375)^{-1}}{(2,25)^{-2} \cdot \left(\frac{2}{3}\right)^{-1}}$$
 ni

hisoblang.

- A)  $\frac{4}{9}$                       B)  $\frac{8}{27}$   
C)  $3\frac{3}{8}$                     D) 1

## FIZIKA

1. «Har qanday jism unga boshqa jismlar ta'sir qilib, boshlang'ich holatini o'zgar-tirilmaguncha o'zining nisbiy tinch yoki to'g'ri chizikli tekis harakat qilib boshlang'ich ho-latini saqlaydi». Bu ... qonuni.

- A) Nyutonning III qonuni  
B) Impulsning saqlanish qo-nuni  
C) Nyutonning I qonuni

D) Butun olam tortishish qo-nuni

2. Modda molekulasi-ning massasi  $m_0$ , zichligi  $\rho$  ga teng bo'lsa, hajm birligidagi molekulalar sonini toping.

- A)  $\rho m_0$   
B)  $m_0 / \rho$   
C)  $m_0 N_A / \rho$   
D)  $\rho / m_0$

3. Uchlaridagi kuchlanish 9 V bo'lgan o'tkazgichdan 4 C zaryad o'tganda qanday issiqlik (J) ajralib chiqadi?

- A) 4            B) 108  
C) 0,25       D) 36

4. Yopiq idish 270°C haroratli suv bilan to'latilgan. Agar to'satdan molekullar orasidagi ta'sirlashuv yo'qolib qolsa, idish ichidagi bosim necha (Pa) bo'ladi?

- A)  $1,5 \cdot 10^7$   
B)  $10^6$   
C)  $1,38 \cdot 10^8$   
D)  $0,8 \cdot 10^8$

5. Muhitda bir-biridan 1 sm masofada 6 va 0,8  $\mu\text{C}$  zaryadlar 16 N kuch bilan ta'sirlashmoqda. Muhitning dielektrik singdiruvchanligini toping.

- A) 12            B) 18  
C) 27            D) 26

6. Birorta sayyorada erkin tushish tezlanishi Yerdagiga nisbatan 2 marta kichik bo'lsa, sayyorada matematik mayatnikning tebranish davri Yerdagidan qanday farq qiladi?

- A) Yerdagidan 2 marta katta  
B) ular bir xil bo'ladi  
C) Yerdagidan  $\sqrt{2}$  marta katta  
D) Yerdagidan 2 marta kichik

7. Kirxgofning birinchi qoidasini aniqlang.

- A) O'tkazgich tuguniga ke-

layotgan toklar bilan tugundan chiqib ketayotgan toklarning yig'indisi nolga teng

B) O'tkazgich tuguniga ke-  
layotgan toklar bilan tugundan chiqib ketayotgan toklarning yig'indisi nolga teng emas

C) Berk zanjirdagi hamma elementlardagi kuchlanishlar yig'indisi shu zanjirdagi EYKlarning yig'indisiga teng

D) Berk zanjirda hamma elementlardagi kuchlanishlar yig'indisi shu zanjirdagi toklar yig'indisiga teng

8. Jism tekis tezlanuvchan harakat qilib 5 soniyada 9 m yo'l bosib o'tdi. Jismning 10 soniyada bosib o'tgan yo'lini toping (m).

- A) 100            B) 150  
C) 125            D) 72

9. Atom yadrosi qanday zarralardan tashkil topgan?

- A) proton va neytronlardan  
B) faqat protonlardan  
C) neytron va elektronlardan  
D) faqat neytronlardan

10. 70°C temperaturada azot molekulasining o'rtacha kvadratik tezligi qanchaga teng bo'ladi (m/s)? (Azotning molyar massasi 28 g/mol ga teng)

- A) 280            B) 500  
C) 560            D) 350

11. Plastilin bo'lagiga avval shar, keyin kub, silindr va konus shakli berilgan. Ushbu figuralar suvga tushirilganda

qaysi biriga eng katta ko'tarilish kuchi ta'sir qiladi?

- A) silindrga
- B) barcha hollarda ko'tarilish kuchi bir xil bo'ladi
- C) sharga
- D) konusga

12. Massalari teng, tezliklari  $v_1 = v_2 > v_3$  bo'lgan jismlarga  $t_1 = t_2 > t_3$  vaqt davomida bir xil kuch ta'sir qilsa, qaysi jism tezligi eng katta qiymatga o'zgaradi?

- A) 3
- B) 2
- C) 1
- D) hammasida bir xil

13. Mars sayyorasining radiusi  $3,4 \cdot 10^6$  m, uning massasi  $6,4 \cdot 10^{23}$  kg. Mars sayyorasi sirtidagi erkin tushish tezlanishini aniqlang ( $m/s^2$ ).

- A) 3,84      B) 4,7
- C) 5,6      D) 6,7

14. Moddiy nuqtaning to'g'ri chiziq bo'ylab harakat tenglamasi  $x = 2t - 0,5t^2$  bo'lsa,  $t_1 = 1$  s dan  $t_2 = 3$  s gacha vaqt oralig'idagi moddiy nuqtaning o'rtacha tezligini aniqlang.

- A) 5              B) 3
- C) 1              D) 0,5

15. Ideal issiqlik mashinasining foydali ish koeffitsiyenti ( $\eta$ ) 50% bo'lishi uchun isitgich temperaturasi sovitgich temperaturasidan necha marta katta bo'lishi kerak?

- A) 5              B) 3
- C) 4              D) 2

16. Gorizontol yo'nalishda  $\mathcal{G}$  tezlik bilan harakatlanayotgan o'q to'singa tegib uning ichiga S masofagacha kirib borib to'xtadi. O'q tezligining qiymati to'singa kirgandan keyin qanday masofada  $\mathcal{G}/2$  bo'ladi?

- A) 0,4S      B) 0,2S
- C) 0,75S      D) 0,25S

17. 1 mg vodorod atom ( $d \approx 10^{-10}$  m) larini bir-biriga taqab zanjir holatga keltirilsa, zanjir uzunligini (km) baholang.

- A)  $10^3 - 10^6$
- B)  $> 10^9$
- C)  $< 1$
- D)  $10^6 - 10^9$

18. Gorizontol o'q atrofi-da aylanayotgan silindrga ip o'ralgan bo'lib, ipning uchiga bog'langan tosh o'z holiga qo'yilganda tekis tezlanuvchan harakat qilib 3 s davomida 1,5 m masofaga tushgan. Agar silindr radiusi 4 sm bo'lsa, u qanday burchak tezlanish bilan aylangan ( $rad/s^2$ )?

- A) 7,52      B) 8
- C) 9,5      D) 8,33

19. Toza germaniyga qanday element atomlari kiritilsa, u n-tipdagi o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi?

- A) kremniy, 4-guruh
- B) mishyak, 5-guruh
- C) oltingugurt, 6-guruh

D) indiy, 3-guruh


20. Energiya zichligi  $17,7 \cdot 10^8 \text{ J/m}^3$  bo'lgan havo kondensatoridagi kuchlanganlik necha V/m ga teng?

- A) 885            B) 300  
C) 177            D) 200

21. Metallarda qarshilikning termik koeffitsiyenti qanday birliklarda o'lchanadi?

- A)  $\text{K}^{-1}$             B)  $\Omega/\text{K}$   
C)  $\Omega \cdot \text{K}$             D)  $\text{K}/\Omega$

22. Chizmadagi jarayonlar qaysi javobda to'g'ri aks etgan?



- A) 1-izobara, 2-izoterma, 3-izoxora  
B) 1-izoxora, 2-izoterma, 3-izobara  
C) 1-izoterma, 2-izobara, 3-izoxora  
D) 1-izoterma, 2-izoxora, 3-izobara

23. Mis simda erkin elektronlar konsentratsiyasi  $8 \cdot 10^{28} \text{ m}^{-3}$  va ularning tartibli harakat tezligi  $5 \cdot 10^{-5} \text{ m/s}$  bo'lsa, tok zichligini aniqlang ( $\text{A/m}^2$ ).

- A)  $6,4 \cdot 10^5$   
B)  $4 \cdot 10^5$   
C)  $6,4 \cdot 10^4$   
D)  $1,2 \cdot 10^5$

24. Bug'lanishga teskari ja-

rayon qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) rekombinatsiya  
B) kondensatsiya  
C) sublimatsiya  
D) dissotsiatsiya

25. Tashqi qarshilik  $1 \Omega$  bo'lganda tok kuchi I ga,  $4 \Omega$  bo'lganda esa I/2 ga teng keldi. Manbaning ichki qarshiligini toping ( $\Omega$ ).

- A) 2                    B) 4  
C) 5                    D) 1

26. Quvvati 600 W bo'lgan qaynatgich yordamida  $100^\circ\text{C}$  temperaturadagi 1 litr suv 15 daqiqada qaynadi. Qaynatgichning FIKni aniqlang (%) (Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J/kg} \cdot \text{K}$ )

- A) 70                    B) 84  
C) 63                    D) 90

27. Massasi 4 kg bo'lgan jism 60 N kuch bilan 5 m balandlikka ko'tarildi. Kuchning bajargan ishi nimaga teng (J)?

- A) 300                    B) 200  
C) 120                    D) 30

28.  $h$  balandlikdan  $g_0$  boshlang'ich tezlik bilan gorizont otilgan jism borib tushgan nuqtaga tushishi uchun uni  $h/4$  balandlikdan qanday gorizont tezlik (m/s) bilan otish kerak?

- A)  $g_0$   
B)  $2g_0$   
C)  $1,5g_0$   
D)  $\sqrt{3}g_0$



29. Quyida keltirilgan kuchlarning qaysi biri ish bajarmaydi?

- A) Amper
- B) Ishqalanish
- C) Arximed
- D) Lorens

30. Tok manbaining ichki qarshiligi tashqi qarshiligidan  $n$  marta kichik bo'lsa, tok manbaining foydali ish koeffitsiyentini toping.

- A)  $\frac{n}{n+1}$
- B)  $\frac{n}{n-1}$
- C)  $\frac{n+1}{n}$
- D)  $\frac{n-1}{n}$

31. Dinamometrqa osilgan  $m$  massali yuk vertikal bo'ylab  $l$  tezlanish bilan pastga harakat qilmoqda. Agar dinamometr prujinasining bikrligi  $k$  bo'lsa, bu prujina qanchaga uzayadi?

- A)  $m(g - a) / k$
- B)  $m(g + a) / k$
- C) 0
- D)  $ma / k$

32. 15 A tok o'tayotgan cheksiz uzun to'g'ri o'tkazgichdan havoda 10 sm masofada joylashgan nuqtadagi magnit maydon induksiyasi ( $\mu Il$ ) topilsin. ( $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} \text{ H / m}$  ga teng deb olinsin)

- A) 30
- B) 300
- C) 0,3
- D) 3

33. Birligi 1,5 kN/m bo'lgan prujina bikrligi 900 N/m bo'lgan prujina o'zaro parallel ulangan. Bu sistemaning umumiy bikrligini toping (kN/m).

- A) 2,4
- B) 2400
- C) 0,24
- D) 1050

34. Gazning zichligi qanday ifoda yordamida hisoblanadi?

- A)  $\rho = RT / PM$
- B)  $\rho = PM / RT$
- C)  $\rho = RTM / P$
- D)  $\rho = P / RTM$

35. Detal sirtini 0,18 mm qalinlikda xromlashga 2 soat vaqt ketgan bo'lsa, tokning o'rtacha zichligini toping ( $A / m^2$ ) (Xromning zichligi  $7,2 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ , elektrokimyoviy ekvivalenti  $0,18 \cdot 10^{-6} \text{ kg/C}$ )

- A) 360
- B) 720
- C) 1000
- D) 180

36. Qiya tekislikning balandligi uzunligining yarmiga teng bo'lsa, jism qiya tekislikdan sirpanib tushmasligi uchun ishqalanish koeffitsiyenti kamida qancha bo'lishi kerak?

- A) 0,64
- B) 0,58
- C) 0,48
- D) 0,7

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Quyida berilgan so'zlarning qaysilari imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan?

1) saxiy; 2) taxsim; 3) taxlit;  
4) taqiqlamoq; 5) ta'qirlamoq;  
6) taqazo etmoq.

A) 2, 5, 6

B) 2, 3, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5

D) 1, 2, 3, 5, 6

2. «Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o'ylab odamlarni ezgulik, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni yozuvchi: «Ey odamzod, ko'zingni och, sen nima uchun yashayapsan, inson degan yuksak nomga munosib bo'lish uchun nima qilyapsan?» – degan savollarni kitobxon oldida, jamiyat oldida qat'iy qilib qo'ya olsagina, o'ylaymanki, o'zining insoniy va ijodiy burchini bajargan bo'ladi». Prezident I.A.Karimovning ushbu fikri manbasini ko'rsating.

A) «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2009-yil 3-iyul sonidan

B) «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», 136-bet

C) «O'zbekiston mustaqillik-

ka erishish ostonasida», 321-bet

D) «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...», 121-bet

3. «*Fikrsiz aqlning zangi*

*bo'ladi,*

*Ilm-la egovla, yangi bo'ladi.*

*Oynadan ibrat ol, bir kun*

*artmasang,*

*Ustida bir enlik changi bo'ladi»* (Abdulqodir Bedil).

Ushbu gapda jarangsiz undoshsiz quyi tor (quyi ko'tarilish yoki keng) unli mavjud ochiq bo'g'inlar nechta?

A) 10 ta      B) 12 ta

C) 7 ta      D) 17 ta

4. Oqtosh viloyatida daftari mastondan qancha mastoni bo'lib, ularning boshlig'i Momogul maston edi?

A) besh yuz

B) uch yuz oltmish

C) to'rt yuz oltmish besh

D) bir yuz sakson

5. «Men yomondan ayrilib, yaxshini topganing qani?» (Qo'shiqdan) Gap bo'laklari tartibi qaysi javobda berilgan?

A) ega, vositali to'ldiruvchi, kesim, vositasiz to'ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi, kesim

B) vositali to'ldiruvchi, ajratilgan to'ldiruvchi, ravish holi, vositasiz to'ldiruvchi, ega, kesim

C) ega, ajratilgan to'ldiruvchi, kesim, vositasiz to'ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi

D) izohlovchi, vositali to'ldiruvchi, ravish holi, qaratqich-aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi

6. Avval Alp Shalchining oq otini, so'ngra az xalqi bilan Qorako'lda jang qilganda u o'lgach, Azmanning oq otini minib jang qilgan qahramon qaysi javobda berilgan?

A) «To'nyuquq» bitiktoshida to'nyuquq

B) «Kultegin» bitiktoshida Kultegin

C) «Alp Er To'nga» marsiyasida Alp Er To'nga

D) «Bilga xoqon» bitiktoshida Bilga xoqon

7. Bosh turmushim to'ri, ko'nglimning jo'ri – Bularning umumasi sen, Vatanim – onam.

Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi uyushib kelgan?

A) ega B) undalma

C) kesim D) aniqlovchi

8. Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarning qaysi birlin ko'chirma gap qismi ega oqibush gapli qo'shma gapga teng?

A) «Haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, u shu bois ham hidlabni bilmaganlarning burnigun sanchiladi», – deyishadi

B) Sofdil vazirlardan biri: «U y podshohi olam, kimki g'a-

zabini ichiga yutsa, – debdi, – u gunohkorning gunohidan o'tadi»

C) «So'z san'atining qudrati shundan iboratki, – deydi Asqad Muxtor, – u hayotda aynan bo'lmagan narsalarga, hodisalarga jon kiritib yuboradi»

D) Shunda podshoh jahl bilan debdi: «Sen aytgan rost gapdan ko'ra uning yolg'oni menga ko'proq ma'qul tushdi, negaki u yolg'onni xayrixohlik yuzasidan aytgan edi»

9. «Xolbeka ...ga kirgandan keyin ovozası olamga ketdi, dong'i ...dan o'tdi». Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

A) o'n yetti, Xitoy

B) o'n to'rt, Rum

C) o'n yetti, Armaniston

D) o'n to'rt, Dog'iston

10. Qaysi qo'shma gap qismlari orasida tinish belgisi noto'g'ri qo'llangan?

A) Yaxshi o'g'il – el obro'si, yaxshi qiz – uy obro'si

B) Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar, Xabar berar asl zotidan

C) Sidiqjon to'xtadi – orqasidan kimdir kelayotgan edi

D) Sabr bila bog'liq ish ochilur, Ishda oshiqqan ko'p toyilur

11. Abdulla Qahhor jilmayib: «Odamzod hasad qilmasligi kerak. Havas qilishi kerak», – dedi.

Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapda odamzod so'zi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan, bu gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda qaysi gap bo'lagi shaklini oladi?

A) qaratqich aniqlovchi; qaratqich aniqlovchi sifatida qoladi

B) ega; vositasiz to'ldiruvchiga aylanadi

C) ega; qaratqich aniqlovchiga aylanadi

D) to'ldiruvchi; belgisiz qaratqich aniqlovchiga aylanadi

12. Lutfiy qaysi g'azalida yorning g'amida qariganligini aytadi?

A) «Bu kechar jahonda, soqiy, chu emas vafo nishoni»

B) «Ey odami(y)lar joni»

C) «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu»

D) «Holiyokim, davri ishrat-tur ilikdin jomni»

13. «O'ttizinchi yillarning o'rtalaridagi bolaligimni o'ylaganimda chalakam-chatti tush ko'rganday bo'lar edim: dumli yulduz chiqqan edi; Babar (Bobur bo'lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o'lmagan edi, shunda otqorovul odamlarga yuzlanib: «Yopiray, bunaqa battol o'g'ri-ni birinchi marta ko'ryapman, men unga o'q uzibman-u, kiprik qoqmadi-ya!» – degan edi» (Abdulla Qahhor).

Mazkur gapdagi yasama so'zlar miqdorini aniqlang.

A) 4 ta B) 5 ta

C) 6 ta D) 7 ta

14. Qaysi gapda so'z birikmasi zanjiri uyushiq to'ldiruvchi atrofida uyushgan?

A) Hulkar eshik oldida bir otasiga, bir Avazga, bir onasiga qarab qo'yardi

B) Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatini tanitgan makon – Vatandir!

C) Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga – Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga – Sattor bir lahzada yetdi

D) O'n-o'n bir yoshli bola dushmanlar keltirgan ochlik-u kulfatlarni kattalar qatori boshidan kechirdi

15. «*Bodasiz miyno-vu jom oxir nashotafzo emas,*

*Emdi bodi g'unchayi gul bu chamanda kam tutay*» baytida qanday badiiy san'at qo'llangan?

A) talmeh B) tajnis

C) tanosib D) tazod

16. «Pastda esa odamni oqizadigan katta suv harsanglarga bosh urub shovullab oqayapti». Qaysi so'zlarda imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan?

A) urub, shovullab

B) shovullab, oqayapti  
 C) harsanglarga, urub, oqayapti

D) oqizadigan, harsanglarga, shovullab

17. Olmoshlarga qaysi qo'ndirilmachalar qo'shilganda ular fonetik qoida asosida yoziladi?

1) egalik; 2) kelishik; 3) raiy, 4) -dek; 5) -aqa; 6) -cha.

A) 1, 2, 3, 4

B) 2, 3, 6

C) 1, 2, 3, 4

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

18. Dor so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

1) O'rda ustiga qurilgan dor Toshpo'lat dorvozchining qurilgan doriga sira ham o'xshamasdi (N.Safarov);

2) Qahr ila Xabbozni bardor bilan Dor boshina oni sangsor bilan (Durbek);

3) Shoyi-shalpa ko'ylagim yuvmay ilingan dorqa, toleyimning yo'qligirdin yolg'onchi bo'ldim yorga (Farg'ona xalq qo'shiqlaridan);

4) ...safe dorlar tikibdurlar («Hoburnoma»).

A) bir so'zning turli ma'no-lari

B) birinchi va uchinchi gap-lar o'zaro polisemantik; ikkin-chi, to'rtinchi gaplar esa bular-qa nisbatan shakldosh

C) to'rtta gapda shaklan-ning kelib qolgan to'rtta so'z

D) ikkinchi, uchinchi va to'r-tinchi gaplar o'zaro poliseman-

tik, birinchi gap esa bularga nisbatan shakldosh

19. Suluv ismli qiz qaysi asar qahramoni?

A) «Oq kema»

B) «Asrga tatigulik kun»

C) «Chinor»

D) «Yulduzlar mangu yonadi»

20. Xadicha xola bolalik chog'idagi singari uning beliga non tugib berdi peshonasidan o'pdi duo qildi irim qilib o'zi ku-zatgani chiqmadi

Ushbu gapda ishlatilishi kerak bo'lgan tinish belgilari qaysi qatorda to'g'ri tartib bilan sanalgan?

A) vergul, vergul, vergul, nuqtali vergul, nuqta

B) vergul, vergul, vergul, ikki nuqta, nuqta

C) vergul, vergul, nuqtali ver-gul, nuqta

D) ikki nuqta, vergul, vergul, tire, nuqta

21. Qaysi so'zlar o'zbek ti-lida so'z yasaliş jarayonida ba'zan fuziya (fleksiya) ele-mentlari ham mavjud ekan-ligini ko'rsatuvchi sifat asosli fe'llarga misol bo'ladi?

A) susay, pasay, qizar, sar-g'ay, yasha

B) ulg'ay, angla, sana, o'y-na, qiyna

C) so'roq, saylov, quvnoq, to'quv, o'quv

D) o'zbek tilida fuziya (flek-siya) elementlari uchramaydi,

chunki u agglyutinativ tillar qatoriga kiradi

22. «Isrof qilish saxiylik emas; o'rinsiz sovrishni aqli kishilar saxiylik demas». Ushbu fikr «Mahbub ul-qulub»ning nechanchi tanbihidan olingan?

- A) 18                      B) 22  
C) 108  
D) 11

23. Quyidagi fe'llarning qaysilari o'zlik nisbat shaklida qo'llana olmaydi?

1) o'ylamoq; 2) gullamoq; 3) yaraqlamoq; 4) uzmoq; 5) otmoq; 6) kulmoq; 7) turmoq.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6  
B) 2, 3, 5, 6, 7  
C) 2, 6, 7  
D) 2, 3, 6, 7

24. «Yozilgan yoki aytilgan so'zning hissiy-ruhiy timso-li» so'zning qanday belgisi sanaladi?

- A) tashqi belgisi  
B) moddiy belgisi  
C) ichki belgisi  
D) badiiy belgisi

25. «Boburnoma»da keltirilgan Samarqandning janubidagi bog'ni toping.

- A) Bog'i Bihisht  
B) Naqshijahon  
C) Bog'i Chanor  
D) Bog'i Shamol

26. «Ko'rgali husnungni zor-u muhtalo bo'ldum sanga, Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga» (Navoiy).

She'r aruzning qaysi vaznida?

A) mutaqoribi musammani mahruf

B) ramali musammani mahruf

C) hazaji musammani mahruf

D) rajazi musaddasi solim

27. Qaysi uslub «til birliklarini tanlash va ularni qo'llashning nisbatan erkin uslubi» hisoblanadi?

- A) so'zlashuv uslubi  
B) ilmiy uslub  
C) publitsistik uslub  
D) badiiy uslub

28. Qaysi gapdagi yasama so'zning asosi portlovchi tovushlardan iborat?

A) Nizomjon konvertni dasdasiga berdi-yu, g'izillagancha chiqib ketdi

B) Mard bir o'lar, nomard yuz o'lar

C) Bobur yoshligida ham ziyrak, topqir bola edi

D) Yig'lama, qizim, onang albatta, qaytib keladi

29. Alisher Navoiy g'azallarida gulga oid iboralardan qaysilarini sinonimiya vositasida qanday variantda ishlatgan?

A) gul, chechak, vard, shugufa

B) nasrin, nastarin, nargis, nilufar, savsan, rayhon

C) xino, zanboq guli, lola, sadbarg, ra'no, hazorg'uncha, zag'far, sumanbar

D) sunbul, ishqiy pechan; manzarali daraxtlar: sarv, ar-ar, arq'uvon, shamshod

**30.** Qaysi asarda yozilishi-  
tini, u vaqtlarda shoir bo'lish-  
ni istagan kishi o'zidan oldin  
o'tganlar ijodidan yigirma ming  
bayt, zamondosh shoirlar ijo-  
didan o'n ming bayt she'rni  
yod olishi kerak edi?

A) Davlatshoh Samarqan-  
diy, «Tazkirat ush-shuaro»

B) Nizomiy Aruziy Samar-  
qandiy, «Majma un-navodir»

C) Alisher Navoiy, «Muhoka-  
mat ul-lug'atayn»

D) Alisher Navoiy, «Majolis  
un-nafois»

**31.** Berilgan gaplarning qay-  
si birida sifat boshqaruvi mav-  
jud emas?

A) Men suygan suyuqli shun-  
chalar go'zal

B) Mehmon otangdan ulug'

C) Otdan baland, itdan past

D) Berilgan gaplarning bar-  
chalarida sifat boshqaruvi mavjud

**32.** Qaysi fikr rasmiy-idora-  
viy uslubga xos emas?

A) bu uslub hujjatilik xarak-  
teri bilan ajralib turadi

B) tayyor nutq formulalari,  
hujjat matnining darak-axborot  
xarakterida bo'lishini, so'zlar-  
ning bir ma'noda ishlatilishini  
talab qiladi

C) badiiy-tasviriy vositalar-  
ning bo'lmasligini, fe'ning maj-  
hullik va buyruq-istak shakllari,

qo'shma gap turlarining keng  
qo'llanilishini talab qiladi

D) barcha fikr shu uslubga  
xos

**33.** «Ma'yus bordim...,  
Bir ko'cha ketguncha do'kon,  
Sho'x odami, ichmay piyon,  
Mast, otasi bezor ekan».

«Sayohatnoma»da keltirilishi-  
cha, bu qaysi qishloq ta'rifi?

A) Nursux B) Zohidon

C) Oq yer D) O'ltarma

**34.** Respublikamizdagi ko'p-  
lab pedagogika institutlari xu-  
susan Farg'ona, Namangan,  
Sirdaryo institutlari – universi-  
tetga aylandi.

Ushbu gapda uyushiq  
bo'laklar va umumlashtiruvchi  
so'z orasida tinish belgisining  
ishlatilishi qaysi javobda to'g'ri  
berilgan?

A) umumlashtiruvchi so'z-  
dan keyin va uyushiq bo'lak-  
lardan oldin vergul qo'yiladi

B) umumlashtiruvchi so'z-  
dan keyin va uyushiq bo'lak-  
lardan oldin ikki nuqta qo'yiladi

C) umumlashtiruvchi so'zdan  
keyin ikki nuqta, uyushiq bo'lak-  
lardan oldin vergul qo'yiladi

D) umumlashtiruvchi so'z-  
dan keyin vergul, uyushiq  
bo'laklardan oldin ikki nuqta  
qo'yiladi

**35.** Uning chaqnoq ko'zlari,  
siyrak qoshi, o'ychan turishi  
katta bardoshini, sadoqatini,  
aqlini aks ettirib turardi.

Ushbu gapda sodda yasma so'zlar tarkibidagi tovushlar uchun umumiy bo'lgan fikr qaysi javobda berilgan?

A) faqat quyi ko'tarilish, ya'ni quyi tor unlilardan iborat

B) faqat portlovchi undoshlardan iborat

C) faqat til undoshlaridan iborat

D) fe'l va otdan sifat yasalgan

**36.** «Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni Vatan» deb boshlanadigan naqarot qaysi g'azalda uchraydi?

A) «Dardiga darmon istamas»

B) «Yig'la, Turkiston»

C) «Turkiston»

D) «Jonlarni jononi vatan»



3-VARIANT

MATEMATIKA VA INFORMATIKA

1.  $a + ab + ba + bb = 198$  to'plamida  $aa$ ,  $ab$ ,  $ba$ ,  $bb$  ikki xonali sonlar bo'lsa,  $ab$  soni eng kam necha bo'lishi mumkin?

- A) 14                      B) 15  
C) 18                      D) 17

2.  $a$ ,  $b$  va  $c$  ketma-ket juft sonlar bo'lsa,  $(a-b)^2 + (c-a)^2$  ni toping.

- A) 4                        B) 6  
C) 14                      D) 20

3.  $\frac{(x-2)(x+7)}{(x-5)^2} \leq 0$  tengsizlikni yoching.

- A)  $[-7; 2]$                 B)  $(-7; 5)$   
C)  $[5; 2]$                  D)  $[-7; 5]$

4. To'g'ri burchakli uchburchakning bir kateti 15 ga, ikkinchi katetining gipotenuzadagi proyeksiyasi 16 ga teng bo'lsa, shu uchburchakka ichki chizilgan aylana yuzasi necha ga teng?

- A) 16    B) 25    C) 36    D) 49

5.  $\arctg(\tg x)$  tenglamani  $\left(0; \frac{\pi}{2}\right)$  oraliqdagi yechimini toping.

- A)  $\frac{\pi}{6}$                         B)  $\frac{\pi}{4}$   
C)  $\frac{\pi}{3}$                         D)  $\frac{\pi}{16}$

6. Agar  $a = \sqrt[3]{20} + \sqrt[3]{50}$  bo'lsa,  $a^3 - 30a$  ni toping.

- A) 20    B) 30    C) 50    D) 70

7. Konusning balandligi 15 ga, yasovchisi 25 ga teng bo'lsa, unga ichki chizilgan sharning radiusini toping.

- A) 9                        B) 12  
C)  $9\sqrt{3}$                 D)  $6\frac{2}{3}$

8.  $A(1;1;1), B(3;0;1), C(0;3;1)$  uchburchak uchlari koordinatalari bo'lsa, uning og'irlik markazi koordinatalari yig'indisini toping.

- A)  $\frac{1}{3}$                         B) 3  
C) 4                        D) 5

9.  $(x^2 - 1)(2^x - 2^{\sqrt{3x+10}-2}) = 0$  tenglama barcha yechimlari o'rtacha arifmetigini toping.

- A) -0,25                B) -1  
C) 1,5                    D) 0

10. Tengsizlikni yeching:

$$\frac{\sqrt{2-x-x^2}}{x+5} > 0$$

- A)  $(-5; 1) \cup (1; \infty)$   
B)  $(-5; 1)$   
C)  $(-2; 1)$   
D)  $(-5; 1]$

11. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig'indisi 21 ga, uning maxraji  $\frac{1}{3}$  ga teng bo'lsa, uning beshinchi hadini toping.

## 2-VARIANT

## Matematika va informatika

1	A	7	A	13	C	19	C	25	A	31	B
2	A	8	A	14	D	20	C	26	B	32	B
3	D	9	B	15	A	21	A	27	B	33	C
4	B	10	D	16	C	22	C	28	C	34	A
5	D	11	C	17	C	23	A	29	A	35	C
6	C	12	D	18	D	24	D	30	C	36	D

## Fizika

1	C	7	A	13	A	19	B	25	A	31	A
2	D	8	A	14	D	20	D	26	A	32	A
3	D	9	A	15	D	21	A	27	A	33	D
4	C	10	B	16	C	22	D	28	B	34	B
5	C	11	B	17	D	23	A	29	D	35	C
6	C	12	C	18	D	24	B	30	A	36	B

## Ona tili va adabiyot

1	A	7	A	13	C	19	D	25	C	31	D
2	A	8	B	14	D	20	C	26	B	32	D
3	A	9	D	15	C	21	A	27	A	33	B
4	B	10	C	16	C	22	D	28	C	34	D
5	B	11	C	17	D	23	D	29	A	35	C
6	B	12	A	18	C	24	C	30	B	36	D